| <b>Fayzullayev Javlonbek Sultonovich</b> , DSc.                                                                                                                       |     |
| Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari .....                                                         | 382 |
| <b>Xayriddinov Sh. B.</b> , mustaqil izlanuvchi                                                                                                                       |     |
| Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari .....                                                                                                    | 385 |
| <b>Xolov Nabijon Qaxramonovich</b> , PhD.                                                                                                                             |     |
| Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari .....                                                                                   | 391 |
| <b>Xusanov Otabek Nishonovich</b> , PhD, mustaqil izlanuvchi                                                                                                          |     |
| Banklarining aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari.....                                                                                                       | 396 |
| <b>Elbusinova Umida Xamidullayevna</b> , kafedra dotsenti                                                                                                             |     |
| Особенности методики проведения аудита затрат на производство.....                                                                                                    | 401 |
| <b>Хилола Икрамова Ровшан кизи</b> , базовый докторант                                                                                                                |     |
| Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni .....                                                                                                                     | 407 |
| <b>Bekdavlat Aliyev</b>                                                                                                                                               |     |
| O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari .....                                                                                   | 412 |
| <b>O'ktamova Nozima Narzulla qizi</b> , kafedra dotsenti                                                                                                              |     |
| Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari.....                                                                         | 416 |
| <b>Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich</b> , mustaqil izlanuvchi                                                                                                            |     |
| XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiyalaridagi umumiylik va xususiylik.....                                      | 420 |
| <b>Abrorxon Asatulloev Asatulloevich</b> , falsafa fanlari doktori (PhD)                                                                                              |     |
| Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari.....                                                                                                  | 424 |
| <b>Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna</b>                                                                                                                            |     |
| Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития ..... | 431 |
| <b>Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна</b> , аспирант                                                                                                                   |     |
| Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari .....                                                              | 440 |
| <b>Xolmamatov Farhodjon Kubayevich</b> , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor                                                                      |     |
| Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari va uning huquqiy asoslari .....                                                                                     | 446 |
| <b>Bobirjon Aktamov</b> , mustaqil tadqiqotchi                                                                                                                        |     |
| Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti.....                                                                | 454 |
| <b>Axmedov Sayfullo Normatovich</b> , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi                                                                                                  |     |
| Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish.....                                             | 459 |
| <b>Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li</b>                                                                                                                            |     |



# YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA O'SIMLIKLER KARANTINI TIZIMI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH



**Alimov Murodkosim Achilovich**

Qishloq xo'jaligi vazirligi Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar  
xalqaro markazi mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada yangi O'zbekiston sharoitida o'simliklar karantini davlat xizmati faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy rivojlantirishga oid amalga oshirilgan ishlar va tadqiqot natijalari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** o'simliklar karantini, fitosanitar nazorat, karantin nazorati ostidagi mahsulot, iqtisodiy samaradorlik, jamg'arma, rag'batlantirish, fitosanitar sertifikat, karantin ruxsatnoma, eksport, import, zararkunanda, bakteriya, virus, kasallik.

**Аннотация:** В статье представлены работы и результаты исследований, связанные с совершенствованием и экономическим развитием государственной службы карантина растений в условиях нового Узбекистана.

**Ключевые слова:** Карантин растений, фитосанитарный контроль, подкарантинные продукция, экономический эффективность, фонд развития, стимулирования, фитосанитарный сертификат, карантинная разрешения, экспорт, импорт, вредитель, бактерия, вирус, болезни.

**Abstract:** The article presents the work and research results related to the improvement and economic development of the plant quarantine state service in the conditions of the new Uzbekistan.

**Key words:** Plant quarantine, phytosanitary control, regulated products, economic efficiency, development fund, incentives, phytosanitary certificate, quarantine permits, export, import, pest, bacterium, virus, diseases.

## KIRISH

O'zbekiston meva-sabzavot ishlab chiqarishda ulkan imkoniyatlarga ega. Aholi farovonligini doimo oshirib borishda xalqimiz turmush tarziga eng yaqin va tez natija beradigan yo'nalish qishloq xo'jaligida yuqori daromadli intensiv ishlab chiqarishni tashkil etishdir. Bog'dorchilik tarmog'i va issiqxona xo'jaliklarida boshqaruv tizimini yaxshilash, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etish, qishloq xo'jaligida kooperatsiyani yo'lga qo'yish, zamonaviy resurs tejamkor texnologiyalar asosida yuqori sifatli, raqobatbardosh va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, oziq-ovqat sanoatini jadal sur'atlarda rivojlantirish maqsadida qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Shunday bo'lsada, jahon bozorida meva-sabzavot mahsulotlar savdosi 205 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bir paytda, respublikaning mazkur bozordagi ulushi bir foizga ham yetmayapti. Ushbu mahsulotlarning mamlakat eksporti tarkibidagi ulushi esa atigi 7 foizni tashkil qiladi.

Ma'lumki, mamlakatimizdagi mavjud tabiiy-iqlim sharoiti qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, xususan, meva-sabzavotchilikni barqaror rivojlantirish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan sohani bozor munosabatlariga o'tish jarayonida meva-sabzavotchilikni rivojlantirishga ustuvor yo'nalishlar sifatida katta e'tibor qaratilmoqda. Zero, meva-sabzavotchilik mahsulotlarini tashqi bozorlarda sotish hisobiga mamlakat valyuta tushumining sezilarli qismi shakllanayotganligi ham sohani tubdan isloh qilish va jadal rivojlantirishning ustuvorligidan dalolat beradi.

Eksportbop mahsulotlar hajmini ko'paytirish, ularni sifatini yaxshilash borasida O'simliklar karantini davlat xizmati tizimini takomillashtirish talab etiladi.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Karantin fitosanitar nazoratini O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'simliklar karantini va himoyasi agentligi amalga oshiradi. Fitosanitar nazorat qilishdan maqsad mamlakat hududiga o'simliklar, hayvonlar va aholi salomatligi va mavjud bioxilmaxillikka salbiy ta'sir qiluvchi zararli organizmlarning (o'simlik mahsulotlari kasallik va hasharotlari, nematodalar hamda zararli begona o'tlar) kirib kelishini o'z vaqtida aniqlash va tarqalishining oldini olish.

Karantin fitosanitar chora-tadbirlar, me'yorlarning qo'llanilishi bir tomondan mamlakatda o'simlik dunyosini, ekotizim va oziq ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladigan bo'lsa, boshqa tomondan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xalqaro savdo aylanmasida keraksiz to'siqlar qo'yishning oldini olishga xizmat qiladi. O'zbekiston kabi yirik hajmdagi meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqaruvchi mamlakatlar uchun bu alohida iqtisodiy va amaliy ahamiyatga ega.

2017-yil 30-avgust O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5174-sonli farmoni va PQ-3249-sonli qarorlari mamlakatimizda O'simliklar karantini va fitosanitar holatini ta'minlash yuzasidan olib boriladigan ishlarni takomillashtirish va O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi faoliyati bo'yicha tub islohotlar amalga oshirilishiga asos bo'ldi.

Ushbu qarorga asosan O'simliklar karantinini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etildi.

Quyidagilar Jamg'arma mablag'larini shakllantirishning asosiy manbalari etib belgilandi:

- urug'liklar, o'simliklar va o'simlik mahsulotlarini import qilish uchun karantin ruxsatnomalarini rasmiylashtirish uchun olinadigan to'lovlar;
- tarkibida urug'lar, o'simliklar va o'simlik mahsulotlari bo'lgan, O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit bo'yicha olib o'tilayotgan yuklarga karantin ruxsatnomasini rasmiylashtirishdan olingan to'lovlar;
- urug'lar, o'simliklar va o'simlik mahsulotlarini eksport qilishda fitosanitariya sertifikatlarini rasmiylashtirish uchun olinadigan to'lovlar;
- eksport va import qilinayotgan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarning namunalarini laboratoriya ekspertizasidan o'tkazilishi uchun olinadigan to'lovlar;
- eksport va import qilinayotgan o'simliklar karantini nazoratidagi mahsulotlarni zararsizlantirish bo'yicha fumigatsiya ishlari o'tkazilganligi uchun olinadigan to'lovlar;
- karantindagi yuklarni O'zbekiston Respublikasi hududi ichida karantin fitosanitariya sertifikatini rasmiylashtirganlik va taqdim etganlik uchun olinadigan to'lovlar;
- o'simliklar karantini sohasidagi ma'muriy huquqbuzarlik uchun qonunchilikka muvofiq undiriladigan jarimalar;
- qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-yanvar 65-sonli qarori bilan Fitosanitar sertifikat, karantin ruxsatnomasi, transport birligini ochish uchun karantin ko'rigi dalaolatnomasini rasmiylashtirish va boshqa xizmat turlari uchun narxlar belgilandi.

2018-yil 28-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori qabul qilindi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'simliklar karantini bo'yicha jahon tashkilotining karantin organizmlar ro'yxatida 335 ta zararli organizm ro'yxatga olingan. "Respublikada karantindagi zararkunandalar, o'simlik kasalliklari va begona o'tlarning ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan O'simliklar karantinidagi zararli organizmlar A1 ro'yxatiga asosan O'zbekiston Respublikasi hududida karantin hisoblangan hasharotlar 88 ta, nematodalar 7 ta, kasalliklar 56 ta, shundan zamburug'li kasalliklar 16 ta, bakterial kasalliklar 14 ta, virusli kasalliklar 26 ta, begona o'tlar 36 tani tashkil etadi.

O'zbekiston respublikasi hududida tarqalgan va cheklangan miqdorda tarqalgan karantin organizmlar ro'yxati A2 da 7 ta hasharot, 3 ta begona o't va 1 ta virusli kasallik kiritilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Inspeksiya va o'simliklar karantini hududiy inspeksiyalari tomonidan ko'rsatiladigan davlat xizmatlaridan kelib tushadigan davlat boji va yig'imi ko'rinishidagi tushumlar jamg'armaga 80 foiz miqdorida, shu jumladan, Inspeksiya xodimlarining moddiy rag'batlantirilishiga jamg'armaga kelib tushadigan mablag'larning 10 foizidan ortiq bo'lmagan miqdori yo'naltirilishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-yanvar 65-sonli qarori bilan Fitosanitar sertifikat, karantin ruxsatnomasi, transport birligini ochish uchun karantin ko'rigi dalaolatnomasini rasmiylashtirish va boshqa xizmat turlari uchun narxlar belgilandi.





**1-jadval:** Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-yanvardagi 65-sonli qaroriga asosan xizmat ko'rsatish uchun belgilangan to'lov miqdorlari

| № | Xizmat ko'rsatish turi                                          | Yuk miqdori       | To'lov miqdori<br>B. h. mning % i |
|---|-----------------------------------------------------------------|-------------------|-----------------------------------|
| 1 | fitosanitar sertifikatini olish (qo'l yuki)                     | 40 kg gacha       | 15                                |
| 2 | bir transport birligiga fitosanitar sertifikati uchun           | 500 kg gacha      | 20                                |
| 3 | bir transport birligiga fitosanitar sertifikati uchun           | 1000 kg gacha     | 25                                |
| 4 | bir transport birligiga fitosanitar sertifikati uchun           | 1000 kg dan ortiq | 100                               |
| 5 | bir transport birligiga reeksport fitosanitar sertifikati uchun | 1000 kg dan ortiq | 100                               |
| 6 | Karantin ruxsatnomasi berish uchun arizani ko'rib chiqish       |                   | 100                               |

2018-yil 28-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Qarorda ushbu sohadagi ishlarning ahvolini o'rganish fitosanitar xavfsizlikni to'laqonli ta'minlashga hamda chet el mamlakatlari, kompaniya va korporatsiyalar bilan qishloq xo'jaligi shuningdek, mevasabzavot mahsulotlari bilan tashqi savdo aloqalarini kengaytirishga, eksport salohiyatini oshirish, mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi bir qator muammo va kamchiliklar ko'rsatilib ularni bartaraf etish bo'yicha vazifalar belgilandi va Inspeksiya qo'shimcha 176 shtat birligini, shu jumladan, 121 o'simliklar karantini bo'yicha tuman va shahar inspektorlarini, 99 avtomobil yo'llari, temir yo'l stansiyalari, aeroportlar, daryo portidagi o'simliklar karantini bo'yicha chegara punktlari hamda pochtdagi punkt inspektorlari shtatlari ajratildi.

2018–2020-yillarda O'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi hamda 2019-yil 1-dekabr qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda karantin laboratoriyalarining tashkil qilinishini hamda ularning karantin tadbirlarini amalga oshirish uchun kerakli bo'lgan barcha zarur laboratoriya uskunalari va texnik vositalar bilan jihozlanishi ta'minlandi.

2018-yil 1-maydan o'simliklar karantini bo'yicha tuman va shahar inspektorlari, avtomobil yo'llari, temir yo'l stansiyalari, aeroportlar, daryo portidagi o'simliklar karantini bo'yicha chegara punktlari hamda pochtdagi punkt inspektorlariga, qonun hujjatlarida belgilangan ustama va qo'shimcha to'lovlardan tashqari, jamg'arma mablag'lari hisobidan har chorak yakuni bo'yicha mehnat faoliyatida yuqori natijalarga erishganligi uchun inspeksiya boshlig'i tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan faoliyatni baholashning reyting tizimiga muvofiq belgilanadigan quyidagi miqdorlardagi rag'batlantiruvchi to'lovlar joriy qilingan:

**2-jadval**

| № | Ko'rsatkichlar                                     | Qo'shimcha ish haqqi                      |
|---|----------------------------------------------------|-------------------------------------------|
| 1 | 70 ball dan 80 ballgacha to'plagan inspektorlarga  | lavozim maoshiga 50 foizgacha             |
| 2 | 80 ball dan 90 ballgacha to'plagan inspektorlarga  | lavozim maoshiga 100 foizgacha            |
| 3 | 90 ball dan 100 ballgacha to'plagan inspektorlarga | lavozim maoshiga 150 foizgacha belgilandi |

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-avgust PQ–3249 sonli va 2018-yil PQ–3626-sonli qarorlarida ko'rsatilgan vazifalar va ularni bajarish, shuningdek, O'simliklar karantini davlat xizmati tizimini moddiy texnik ta'minotini rivojlantirish, laboratoriya qurilishi va ularni zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash yuzasidan bir qancha tashkiliy iqtisodiy ishlar amalga oshirildi.

Transport vositalari va maxsus avtomobillar bilan ta'minlash yuzasidan ma'lumotlar quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

**3-jadval:** O'simliklar karantini davlat xizmatini 2018–2020-yillarda maxsus va xizmat avtotransport vositalari bilan ta'minlash (mln. sum)

| Avto va mototransportlar nomi                                          | Bahosi<br>(bir dona) | Jami |       | Yillar bo'yicha: |       |      |       |      |       |
|------------------------------------------------------------------------|----------------------|------|-------|------------------|-------|------|-------|------|-------|
|                                                                        |                      |      |       | 2018             |       | 2019 |       | 2020 |       |
|                                                                        |                      | soni | summa | soni             | summa | soni | summa | soni | summa |
| Tuman va shahar o'simliklar karantini inspektorlari uchun mototsikllar | 3,5                  | 169  | 591,5 | 169              | 591,5 |      |       |      |       |
| Fumigatsiya otryadlari uchun "Damas VAN" Avtomobillari                 | 65                   | 15   | 975   | 5                | 325   | 5    | 325   | 5    | 325   |



|                                                                                                          |    |     |       |     |       |    |       |    |       |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|-----|-------|-----|-------|----|-------|----|-------|
| O'simliklar karantini chegara maskanlari uchun "Damas" Avtomobillari                                     | 62 | 58  | 3596  | 10  | 620   | 24 | 1488  | 24 | 1488  |
| Karantin laboratoriyalari uchun maxsus "Damas" ko'chma laboratoriyalar                                   | 68 | 15  | 1020  | 5   | 340   | 5  | 340   | 5  | 340   |
| O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi va hududiy inspeksiyalari uchun xizmat avtomobillari           | 70 | 30  | 2100  | 10  | 700   | 10 | 700   | 10 | 700   |
| O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi va hududiy inspeksiyalari uchun navbatchi xizmat avtomobillari | 45 | 15  | 675   | 5   | 225   | 5  | 225   | 5  | 225   |
| Jami                                                                                                     |    | 302 | 8 958 | 204 | 2 802 | 49 | 3 078 | 49 | 3 078 |

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqoridagi farmon va qarorlariga asosan 2020-yil oxirigacha jadvalda keltirilgan avtotransport vositalari bilan to'liq ta'minlangan. 2018–2022-yillarda o'simliklar karantini davlat xizmatini rivojlantirishga oid 1 ta farmon va 5 ta qaror qabul qilingan. Ular xorijiy davlatlar, xorijiy firmalar manfaat va mamlakatimizdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari tashqi-savdo iqtisodiy faoliyati bilan shug'ullanadigan tadbirkorlik subyektlari manfaatlariga zid kelmaydigan holatda, ochiqlik va demokratik tamoyillarga asoslangan holda ishlab chiqilgan. Davlat rahbari va hukumatimizning o'simliklar karantinini rivojlantirish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar natijasida jamg'arma mablag'lari hajmi deyarli 10 baravar ortgan.

**4-jadval: O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning 2017–2022-yillardagi qiymati to'g'risida m'lumot**

| № | Ko'rsatilgan xizmatlar                                            | 2017-yilgi summasi (ming so'm) | 2018-yilgi daromad (ming so'm) | 2019-yilgi daromad (ming so'm) | 2020-yilgi daromad (ming so'm) | 2021-yilgi daromad (ming so'm) | 2022-yilgi daromad (ming so'm) |
|---|-------------------------------------------------------------------|--------------------------------|--------------------------------|--------------------------------|--------------------------------|--------------------------------|--------------------------------|
| 1 | Karantin ruxsatnomasi                                             | 567 247                        | 2 318 006                      | 2 480 309                      | 36 505 407                     | 24 614 219                     | 32 752 470                     |
| 2 | Fitosanitar sertifikat                                            | 3 119 837                      | 6 508 011                      | 9 391 145                      | 10 834 753                     | 42 684 498                     | 46 264 890                     |
| 3 | Ichki fitosanitar sertifikat                                      | 231 639                        | 569 444                        | 717 296                        | 717 296                        | 3 644 723                      | 3 646 363                      |
| 4 | Tranzit yuklarni ochmasdan transport birligiga ko'rik dalolatnoma | 113 677                        | 384 354                        | 405 841                        | 405 841                        | 181 153                        | 341 724                        |
| 5 | Transport birligini ochish dalolatnomasi                          | 3 542 701                      | 10 194 186                     | 13 900 828                     | 15 985 952                     | 19 779 016                     | 23 382 458                     |
| 6 | Fumigatsiya xizmatlari                                            | 3 491 441                      | 31 221 113                     | 46 816 670                     | 62 422 230                     | 61 241 630                     | 35 435 000                     |
|   | jami                                                              | 11 066 542                     | 51 195 114                     | 73 712 088                     | 126 871 478                    | 152 145 239                    | 140 587 905                    |

## XULOSA VA TAKLIFLAR

- O'simliklar karantini xizmati o'simlik va o'simlik mahsulotlari bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishda, mamlakat eksport salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Ishlab chiqiladigan mahsulot sifatini va eksportbop mahsulotlar hajmini ko'paytirish, kasallik, hasharot va begona o'tlar hamda boshqa xavfli zararli organizmlarga qarshi kurashda iqtisodiy xarajatlarni kamaytirib, Importer mamlakatlarning qishloq xo'jaligi va meva-sabzavot eksport mahsulotlariga bo'lgan talablari asosida xalqaro me'yorlar va standartlarga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlash orqali mahsulot yetishtiruvchi va eksport qiluvchi tadbirkorlik subyektlari daromadlarini oshirish orqali har bir viloyat va mamlakat eksport salohiyatini rivojlantiradi.
- Mavjud o'simliklar karantini xizmati faoliyati qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishda eksportbop mahsulotlar hajmi va turini ko'paytirishga ijobiy ta'sir etadi. Bu esa, o'simliklar karantin tadbirlarni muntazam va tizimli ravishda o'simliklar karantin xizmati bilan mahsulot ishlab chiqaruvchilar, eksport-import faoliyatini tashqi iqtisodiy faoliyatni olib boruvchi xo'jalik subyektlari bilan bog'liqlikda



ish olib borishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan o'simliklar karantini xizmatlari va karantin tadbirlar hamda eksport-import faoliyatlari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, birining faoliyati ikkinchisiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

3. O'simliklar karantini xizmatlarini takomillashtirish va meva-sabzavot eksport-importini rivojlantirishni o'zaro bog'liqlikda olib borish, zarur infratuzilmalarni shakllantirishni talab qiladi. Ushbu xizmatlar va tadbirlarning samaradorligini bog'liqlikda oshiruvchi infratuzilmalarni asosan beshta yo'nalishda tashkil etish maqsadga muvofiq. Ular innovatsion ta'minot, kadrlar ta'minoti, texnologik ta'minot, axborot ta'minoti va ushbu jarayonlarning moliyaviy ta'minoti bilan shug'ullanuvchi infratuzilmalardan iborat.
4. Qishloq xo'jaligi va meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishda va eksport-import faoliyatini tashqi iqtisodiy faoliyatni olib boruvchi xo'jalik subyektlari bilan o'simliklar karantini davlat xizmati hamkorlikda ish olib borishi, eksportbop mahsulot yetishtirishda uni ekishdan toki yig'ishtirib olishgacha bo'lgan davrda eksportga salbiy ta'sir etadigan mahsulot sifatini pasaytiradigan yoki uni eksportga yo'naltirishga salbiy ta'sir etadigan karantindagi va boshqa zararli organizmlarga qarshi kurash tadbirlarini birgalikda, o'z vaqtida olib borish tavsiya etiladi. Ushbu jarayonda agronom inspektorlar dala nazoratini o'tkazishini doimiy tashkil qilish, mahsulot yetishtirishda ximiyaviy moddalar bilan ishlashda belgilangan meyorlarga amal qilinishi- mahsulot sifatini yaxshilash va uning eksportbopligini ta'minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "Meva-sabzavotchilikni yanada rivojlantirish va eksportini oshirish chora-tadbirlari"ga bag'ishlangan nutqi. 05.11.2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5174-sonli Farmoni. 30.08.2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3249-sonli qarori. 30.08.2017.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining № 65-sonli qarori. 29.01.2018.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining № 68-sonli qarori. 31.01.2018.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3626-sonli qarori. 28.03.2018.

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 9**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.



"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.